NUTQ MADANIYATINING INSON HAYOTIDAGI O'RNI

H.T.Ahmedova QDU dotsenti,
D.Imomalyeva,
Z.Mamadaliyeva
rus tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi talabalari

Annotatsiya. *Ushbu maqolada nutq madaniyatinng inson hayotidagi o'rni, marifiy ahamiyati haqidagi fikrlar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *nutq madaniyati, nutqiy ko'nikma va odatlar, og'zaki va yozma nutq.*

Аннотация. *В этой статье излагаются мысли о роли культуры речи в жизни человека, о его значении.*

Ключевые слова: *культура речи, речевые навыки и привычки, устная и письменная речь.*

Annotation. *In this article, thoughts about the role of speech culture in human life, its educational significance are described.*

Keywords: *culture of speech, conversational skills and habits, oral and written speech.*

imrconf.com

Nutq madaniyatining ma'rifiy ahamiyati katta. Nutq madaniyatining ahamiyati oddiy bilim bilan cheklanmay, ma'rifatni, ya'ni bilishning eng oddiy martabasini ham o'z ichiga oladi.

Dunyoga kelgan har bir bola haqiqiy inson bo'lib etishishi uchun juda ko'p narsalarni bilishi kerak. U boshlang'ich ta'lim bosqichida o'ziga kerakli bilimni anglab, eshitib va o'qib o'rganadi. Eshitib va o'qib o'rganish til hamda nutq vositasida amalga oshadi.

Nutq madaniyatining ma'rifiy ahamiyati shundaki, u tufayli jamiyat a'zolarining bilimi ommalashib boradi va rivojlantiriladi. Undan tashqari, nutq

tufayli bilim avloddan avlodga og'zaki va yozma tarzda o'tib boradi. Natijada yangi avlod o'tgan avlodning ishini yangidan boshlamasdan, uni davom ettiradi. Shu sababli taraqqiyot ta'minlanadi va rivojlanadi.

Yozma nutq madaniyati tufayli eng qadimgi ma'lumotlarga ega bo'lamiz, hatto kelajakka oid ma'lumotlarni ham olamiz.

O'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchining aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, eslab qolish va esga tushirish imkoniyatlarining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi. Har bir o'quvchi asosiy bilim manbaini maktab ta'limidan oladi. Albatta bu bilimlar og'zaki va yozma nutq tufayli amalga oshiriladi.

Nutq madaniyatini o'rganish va o'rgatishning xususiyati shundaki, so'z yordamida mavjudotni o'rganib umumiy tushunchalar hosil qilinadi. Nutq madaniyati tufayli biz haq bilan nohaqni, yaxshi bilan yomonni bir-biridan farqlashni o'rganamiz. Shu jihatdan olganda, nutq madaniyati katta ma'rifiy ahamiyatga ega.

Nutq madaniyati – bu o'quvchilarda xulq-atvorning ijtimoiy qimmatli sifatlarini shakllantirishni va ularning o'zaro bir-birlariga, oilaga, boshqa insonlarga, Vatanga, mehnatga, jamiyatga munosabatlarini aniqlaydigan va aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyatdir.

Nutq madaniyati nafaqat o'quvchilarda axloqiy bilimlarni hosil qilishni ko'zda tutadi, balki bu me'yorlarni shaxsning qarashlariga va e'tiqodlariga aylanib, uning odatidagi xulq-atvor shakllari sifatida belgilanishini nazarda tutadi. Nutq madaniyatining maqsadi - nutqiy axloqni tarkib toptirishdan iboratdir.

Yuqoridagilarga asoslanib, o'quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish vazifalarini quyidagicha belgiladik:

- nutq his-tuyg'ularini tarkib toptirish va rivojlantirish;
- nutq ko'nikmalari va odatlarini shakllantirish;

imrconf.com

- so’zning tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati anglash, xalqimizning an’ana va urf-odatlariga amal qilgan holda nutq odobi, nutq madaniyati, til madaniyatiga amal qilish;
- o’z fikrini og’zaki va yozma ravishda aniq bayon eta olish, fikrini isbotlay olish, so’zlashish, boshqalarni eshitish va ishontira olish ko’nikmalariga ega bo’lish;
- bilim egallashga ehtiyojni sezish va o’z bilimi va qobiliyatini namoyon qila olish ko’nikmasiga ega bo’lishi; o’qish va jamoa ishlarida faol ishtirok etish, ishga ijodiy munosabatni shakllantirish;
- nutq madaniyatiga nisbatan talabchan, nutqidagi kamchiliklarni bartaraf eta olish;
- nutq odobi sifatlariga ega bo’lish; mehribonlik bilan so’zlash;
- so’zlash jarayonida moslashuvchanlik, kirishimlilik, so’zga chechanlik va boshqalar.

Sanab o’tilgan sifatlarni o’quvchilarga singdirish uchun quyidagi shart-sharoitlarga amal qilish zarur:

- o’quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirishda adabiy tilni mukammal o’rganish;
- o’quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirishda oila, atrof-muhit amaliy faoliyatini tashkil etish;
- notiqlik san’ati ma’naviyatlilik, komillik belgisi ekanligini tushuntirish;
- o’quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirishda dars jarayoni imkoniyatlaridan foydalanish;
- dars va darsdan tashqari jarayonda Mahmud Qoshg’ariyning «Devonu lug’atit turk», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asarlaridagi notiqlik san’ati haqidagi fikrlarini o’rganish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu fikrlarning xulosasi o’rnida shuni ta’kidlash mumkinki, jahon hamjamiyatida ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar keskinlashayotgan bir sharoitda

imrconf.com

notiqlik san’atiga ahamiyat berish muhim o’ringa ega. Shu munosabat bilan o’quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish, uning axloqiy ongi, axloqiy faoliyatining etuklik darajasi, axloqiy ehtiyojlari va axloqiy yo’nalishlari, so’z va ishning birlik darajasi, xullas faol hayoti bilan bevosita bog’liqdir. Demak, nutq madaniyatini shakllantirish natijasida har bir kishi turli ijtimoiy munosabatlarga faol kirishadi. Nutq madaniyati tufayli har bir fuqaro o’z uquvi, is’tedodi, intilishi, tirishqoqligi, mehnatsevarligini namoyon etib, huquqiy-demokratik davlat qurishga intilayotgan yurtimiz hayotida faol ishtirok etadi. O’zining nutqi, fikri, tafakkuri bilan siyosiy tajavvuzkor kuchlarga qarshi kurashadi. Har bir kishi o’z mustaqil, tanqidiy fikri bilan nafaqat O’zbekistonda balki, jahon hamjamiyatidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat; diniy ekstremizm, giyohvandlik singari salbiy illatlarga o’z munosabatini bildiradi. Xulosa qilib aytganda, nutq madaniyatini shakllantirish faqatgina bilim, fikr, tafakkurni rivojlantirib qolmay, balki uning negizida o’sib kelayotgan avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik sifatlariga ega qilib voyaga etkazish, salbiy illatlarga qarshi faol kurasha oladigan muloqotga ega qilib tarbiyalashdir.

imrconf.com

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov N. O’qituvchi nutqi madaniyati.—T.:2007.
2. Rasulov R.,Mo’ydinov Q. Notiqlik san’ati va nutq madaniyati.—T.:2015.
3. Bekmirzayev N. Nutq madaniyati va notiqlik asoslari. T.: Fan.,2007.
4. Abdusaidov A. O’qituvchining nutq mahorati. S.: 2013.
5. Ahmedova H. Noiqlik san’ati manbalari va o’quvchilar nutqini rivojlantirish omillari.- T.:BAYOZ. 2015.
6. Po’latov I., Ahmedova H. Nutq madaniyatini shakllantirish usullari.—T.: Fan va texnologiya, 2008
7. H.Ahmedova Alisher Navoiy nutq madaniyati va notiqlik haqida. “Ilm-fan, ta’lim va san’at integratsiyasi: istiqbolli rejalar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. ШЬIMKEHT, 18.11.2023.

8. H.Ahmedova. A.Navoiyning “Mahbub-ul-qulub” asaridagi nutq madaniyatiga oid qarashlari. https://doi.org/10.5281/zenodo.10315527

9. .H.Ahmedova. Analysis and Deseription of Ancient Sourees of Speech Culture. Journal of Advanced Zoology, Volume 44 Issue 04 Y https//jazindia.com [scops ear2023 Page

10. Х.Т.Ахмедова. Взгляды Алишера Наваи на культуру речи и ораторскую духовность. Ученый XXI века 46, 2017

11. Ҳ.Т.Аҳмедова, Д.Сатторова. Алишер Навоий ва нотиқлик санъати масалалари.INTERNATIONAL SCIENTIFIC INNOVATION RESEARCH CONFERENCE 1(1), 57-61, 2024

imrconf.com